

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi

Mamataliyeva Nargizaning

Jahon geografiyasi fanidan

AFRIKA MATERIGI SUBREGONLARI

mavzudagi

KURS ISHI

Namangan-2014

AFRIKA MATERIGI SUBREGIONLARI

REJA:

1. Afrika regionining geografik o'rni va siyosiy xaritasi
2. Tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Afrika aholisi va mehnat resurslari.
4. Xo'jaligining umumiy tavsifi.
5. Afrika regionining subregionlari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Afrika maydonining kattaligi bo'yicha Yevroosiyodan keyingi yirik materik. Materik maydoni 29,2 mln. kv.km, unga tegishli orollar bilan esa 30,3 mln. kv.km, bu yer quruqlik yuzasining $\frac{1}{5}$ qismi demakdir. OroUaridan Madagaskar eng yirigi hisoblanadi. Hind okeanida joylashgan Sokotra, Zanzibar, Pemba, Mariya, Komor, Amirant, Seyshel, Maskaren (Mavrikiy, Reyunon va b.) va Atlantika okeanida joylashgan Madeyra, Kanar, Kabro-Verde, Bioko, San-Tome, Prinsipi, Vozneseniya, Avliyo Yelena, Tristan-da-Kunyaorollari ham Afrikaga qaraydi. Hozirgi vaqtda Afrikada jami 57 mamlakat mavjud bo'lib, shularnmg ko'pchiligi iqtisodiy qoloq mamlakatlardan iboratdir. Respublikalarning soni 50 ta, monarxiyalar 3 ta. G'arbiy Sahroyi Kabir, Eritreya hamda Moris oroli mamlakatlarining maqomi noma'lum.

Afrika hududining deyarli hammasi kristall jinslardan iborat bo'lgan qadimgi platformada joylashgan. Shuning uchun ham materik magmatik va metamorfik jinslarga juda boy. Xrom, temir, marganes, uran, mis, qalay, kobalt, oltin, platina, asbest, sludaning zaxiralari ulkandir. Materikning g'arbiy, markaziy va ayniqsa, janubiy qismlarida yirik olmos konlari mavjud. Afrika boksit va fosforitlarning zaxiralan bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Umuman olganda, Afrika dunyoda oltin zaxirasi bo'yicha birinchi o'rinni, olmos bo'yicha ikkinchi o'rinni (Avstraliyadan keyin) egallaydi. Unga dunyoda mavjud xrom, marganes, fosforit zaxiralarining $\frac{2}{3}$ qismi, mis, uran, boksit zaxiralarining 25 — 35 foizi, tabiiy gazning deyarli $\frac{1}{5}$ qismi va neft zaxirasining katta qismi to'g'ri keladi.

Afrika suv resurslariga boy. Yillik umumiy suv oqimi 5 ming kub. km. dan ortiq, shundan 25 % i Kongo, 10 %i Zambezi hamda 6 % i Niger daryolariga to'g'ri keladi. Nil daryosining yillik suv oqimi atigi 85 kub. km. ga teng, xolos.

Afrika aholisining soniga ko'ra (858 mln.) materiklar ichida Yevroosiyodan keyingi ikkinchi, uning o'sish sur'atlari bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi. Afrika aholisi yiliga bir necha million kishiga ko'paymoqda. Aholining tabiiy o'sish sur'atlari Markaziy, Sharqiy va G'arbiy Afrika mintaqalari hamda mamlakatlarida (Niger, Chad, Uganda, Malavi, Gvineya, Angola, Mali, Keniya, MAR va b.) ayniqsa

yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanmoqda. Mazkur mamlakatlarda tug'ilish koeffitsienti 40 promilledan ham yuqoridir. Afrika o'lim darajasining yuqoriligi va aholi o'rtacha umr davrining pastligi bo'yicha ham ajralib turadi. Umumiy o'lim koeffitsienti 8—10 promilleni, bolalar o'limi koeffitsienti esa 85 — 90 promilleni tashkil etmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davri 49 yoshdan oshmaydi.

Yirik, o'rta va kichik shaharlar miqdori katta bo'lgan hududlar qatoriga Nil deltasi, Mag'ribning dengiz sohili zonasi, Janubiy Afrika Respublikasi, Nigeriyaning Gvineya qo'ltig'i, Zimbabve, Zambiya va KDRdagi tog'-kon sanoati rivojlangan rayonlar kiradi. Afrikada aholisining soni 1 mln .dan ortiq bo'lgan 20 ga yaqin shahar mavjud. Qohira, Iskandariya, Keyptaun, Yoxannesburg, Lagos, Abijon, Kinshasa, Nayrobi, Addis-Abeba, Jazoir, Kasablanka, Dakar shular jumlasidandir. Qohira, Yoxannesburg, Lagos va boshqa ba'zi yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalar shakllangan.

Afrikada uchta yirik din alohida o'rin egallaydi. Shulardan mahalliy an'anaviy dinlar G'arbiy va Markaziy Afrikada, islom dini Shimoliy, G'arbiy va Sharqiy Afrikada, xristian dini Janubiy, qisman G'arbiy va Markaziy Afrikada hamda Efiopiyada tarqalgan.

1. Afrika regionining geografik o'rni va siyosiy xaritasi.

Afrika regionini materik safatida Yevrosiyo materigidan keyingi ikkichi o'rinda turadi. Maydoni 29,2 million km². Bu yerda quruqlik yuzasining 5/1 qismi demakdir. Region shimoldan janubgacha 8000 km bo'lsa, g'arbdan shaqqa 7500 km ga cho'ziladi. 1980 yillar o'rtalarigacha 50 dan ortiq mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishdilar. 1906 yilgacha Yevropa mamlakatlari tomonidan, Buyuk Britaniya, Frantsiya tomonidan mustamlaka qilib kelindi. Ikkinchi jahon urushigacha Efiopiya, Liberiya 1947 yilda mustaqillikka erishdi. Angliya tomonidan 1922 yilda Yegipet mustaqillikka erishdi. qolgan davlatlar esa Frantsiya, Bel'giya, Portugaliya, Italiya, Ispaniya koloniyasi hisoblanib kelindi. Ikkinchi jahon urushida Sobiq ittifoqning g'alabasi natijasida Afrika mamlakatlarining mustaqillik ko'rishiga katta turtki bo'ldi.

Mustaqillik uchun milliy ozodlik harakatlari boshlanib ketdi. 1950 yillarga kelib Liviya, Yegipet, Rama, Gvineya, Marokash, Tunis, Sudan 1960 yilga kelib esa 17 ta mamlakat Madagaskar, Nigeriya, Kongo, Senegal, Rabom, Kamerun, Somali, Benin, Serro-Leone, Tanzaniya, Uganda, Ruanda, Brunda, Keniya, Zambiya, Malaviya, Gambiya, Botsvana, Lesota, Ekvatorial Gvineya, Mavritaniya kabi davlatlar 1962 yildan Aljir, Gvineya, Bissau, Angola, Mozambik va hokazolar mustaqil bo'ldi. 1980 yillarda Djibubi, Rodeziya, Seyshel orollari, Kanar orollari, Zimbebeve kabilar mustaqillikka erishdilar. Afrika, Yevropa kolonizatsiyasini bosh regionidir. SHimoliy Afrika 2000 yil avval kashf etilgan. 15 asr boshlarida buyuk geografik kashfiyotlar davrida Afrika tropik xududlari kashf etildi. Bu davrda Afrika ov qilinadigan qora tanlilar tutiladigan xududlar edi. Bu davrda qul qilib sotish natijasida Afrika 150 million odam yo'qotdi. Afrika mamlakatlari Yevropa, Osiyo, G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan dengiz tranzit yo'llari bilan bog'langan. 14 ta mamlakat dengizga chiqa olmaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mustaqillikka mustamaka tuzumining yemirilib borishi va milliy ozodlik xarakatlarining kuchayishi natijasida hozirgi zamon Afrika siyosiy kartasi mutlaqo o'zgarib ketgan. Avvalgi Yevropa davlatlari mustamlaka tuzumida bo'lgan bir qancha davlatlar o'z erkinligiga erishgan va

o'nlab Yangi davlatlar tashil topgan. Hozirgi vaqtda Afrikada 57 ta mamlakat mavjud bo'lib, 53 tasi mustaqil va 3 tasi Ispaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya mulki bo'lgan davlatlar joylashgan. Buni jadvalda ko'rish mumkin.

№	Davlatlar	Maydoni (ming km ²)	Aholisi (mln kishi)	Poytaxti
1	Angola	1246,7	12,3	Luanda
2	Benin	112,6	6,6	Portonovo
3	Botsvana	582,5	7,6	Gaborone
4	Burkino-Faso	274,0	12,3	Uagadugu
5	Burundi	27,8	6,2	Bujumbura
6	Gabon	268,7	1,2	Librevil
7	Gambiya	10,4	1,4	Banjul
8	Gana	230,5	1,9	Akkra
9	Gvineya	245,8	7,6	Konakri
10	Gvineya – Bisau	36,1	1,2	Bisau
11	Jazoir	2381,0	31,6	Jazoir
12	JAR	1221,0	43,6	Tretoriya
13	Jibuti	23,2	0,6	Jibuti
14	Zambiya	752,6	9,4	Lusaka
15	Zimbabwe	390,3	11,4	Xarera
16	Kabo-Verde	4,33	0,4	Praya
17	Kamerun	475,0	15,8	Yaunde
18	Keniya	569,6	29,8	Nayrobi
19	Komor orollari	2,2	0,6	Morono
20	Kongo	341,0	3,1	Brazzaul
21	Kongo dengizi resp	2267,4		Kinshasa
22	Kot-Diuar	322,4	16,4	Yamusukro
23	Lesoto	30,3	2,2	Maseru
24	Liberiya	101,3	3,2	Monroviya

25	Liviya	1759,5	5,3	Tripoli
26	Mavrikiy	2,0	1,2	Port-Luis
27	Mavritaniya	1030,7	2,7	Nuakshot
28	Madagaskar	581,0	16,4	Antananarivu
29	Malavi	194,0	11,1	Lilongve
30	Mali	1220	9,3	Bomako
31	Marokash	446,5	29,1	Rabot
32	Markaziy Afrika	623,0	3,6	Bangi
33	Misr Arab resp	995	69,8	Koxira
34	Mozambik	784,0	19,4	Maputu
35	Namibiya	824,0	1,8	Vindkuk
36	Neger	1266,0	10,4	Niamey
37	Nigeriya	910,8	126,6	Abuja
38	Ruanda	26,4	7,3	Kigali
39	San-Tome va Prinsipi	0,9	0,2	San-Tome
40	Svazilend	17,4	1,1	Mbabane
41	Sershel' orollari	0,2	0,1	Viktoriya
42	Senegal	192,2	9,7	Dakary
43	Somali	627,6	7,5	Mogadishe
44	Sudan	2375,0	31,8	Xartum
45	S'erra-Leone	72,3	5,4	Fritaun
46	Tanzaniya	886,1	36,2	Dorrusalom
47	Togo	54,6	5,2	Lomi
48	Tunis	155,0	9,7	Tunis
49	Uganda	199,1	24,0	Kampala
50	CHad	1259,0	8,7	Njamena
51	Ekvatorial Gvineya	28,0	0,5	Malabo
52	Eritreya	125,0	4,3	Asmera
53	Efiopiya	976,0	65,4	Adis-Abeba

54	G'arbiy Saxroi Kabir	267,0	0,2	Al-Ayyun
55	Seutava Melil'ya (Isp)			
56	Reyun'on (Frantsiya)	2,5	0564	Sen-Deni
57	San Elenao	0,4	0,008	Jeymstaun

Bu mamlakatlarni ko'pligi iqtisodiy qoloq mamlakalardan iboratdir. Respublikaning soni 50 ta, Monarxiya 3 ta. G'arbiy Saxroi Kabir, Erireya hamda Moris oroli mamlakatlarning maqomi ma'lum.

2. Afrika tabiiy sharoiti va resurslari. Regionning tabiati o'ziga xos bo'lib, hilma-xil tabiiy resurslarga ega. Region xududining deyarli hammasi kristall jinslardan iborat bo'lib, qadimgi platformada joylashgan. SHuning uchun ham materik magmatik va metamorfik jinslarga juda boy. Foydali qazilmalari va gidroenergiya zapaslari, iqlim va tuproq taribiga ko'ra qishloq xo'jaligini rivojlantirish, sanoatni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lgan regiondir. Rel'efi tekislik xarakterida plato, palaxsali tog'lardan iborat. Afrika regioni hali geologik jihadan to'la o'rganilmagan. Xrom, temir, marganets, uran, mis, qalay, kobal't, oltin, platina, asbest, suladaning zaxiralari ulkandir. Afrikaning asosiy mineral boyliklari kembriydan oldin va kembriy davrida hosil bo'lgan. Marganets rudalari, boksit, oltin, qalay, niobiy va asbest konlari kembriydan oldingi jinsdan tarkibida uchraydi. Afrika boksit va fosforlarning zahirasi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Umuman olganda oltin zahirasi bo'yicha birinchi o'rinni, olmos bo'yicha ikkinchi o'rinni (Avstraliyadan keyin) egallaydi. Unga dunyoda mavjud xrom, marganets, fosfor zahiralarining 2/3 qismi, miss, uran, boksit zahiralarining 25-35 foizini, tabiiy gazning deyarli 1/5 qismi va neft zahirasining katta qismiga to'g'ri keladi. JAR, Svazilend va Zimbabveda xrizotil-asbest konlari, JAR da surma va korund konlari, dunyodagi uran aralash eng boy oltin konlari, Zimbabveda xromit va oltin konlari, Gvineyada boksit konlari, Kanada marganets rudasi, boksit va oltin konlari, Kongoda kumush, Nigeriyada kumush va kolumbit, Madagaskar orolida grafit bor. Markaziy Afrikaning miss mintaqasida kembriy

davrida hosil bo'lgan jinslar orasida Zambiyada ko'p uchraydi. Bu yerda miss bilan birgalikda kobal't, uran, Rux, Namibiyada vanadiy, berilliy va litiy konlari, Marokashda kobal't va polimetall konlari bor.

Janubiy Afrikadagi kumush, xromit, marganets, temir rudalari, titanmagnetit va flyuorit konlari quyi paleozoyda hosil bo'lgan. Jar va Kongo demokratik Respublikasidagi tub olmos, JAR va Zimbabvedagi ko'mir konlari, Saxroi Kabirning Jazoirga qarashli qismidagi neft konlari, Misrdagi marganets konari mezozoy (yura va bo'r davrlari)da hosil bo'lgan. Atlantika sohilidan Misrgacha cho'zilgan keng maydonda fosforit, Marokash, Jazoir va Tunisda temir, qo'rg'oshin, ruz konlari mavjud. Liviya, Aljir, Nigeriya, Misr, Rabon, Angola davlatlari neft' resurslariga boy. Afrikning katta xududi tropik, subtropik iqlimida joylashgan. Issiqsevar o'simliklar uchun yetarli agroiklim resurslari bor. Yillik aktiv teperatura 6000^0 - 10000^0 bo'lib katta qismida issiqsevar o'simliklardan katta hosil olish imkoniyatini yaratadi. Region suv resurslariga boy. Yillik umumiy suv oqimi 5 ming kub km dan ortiq, shundan 25% i Kongo, 10%i Zambezi hamda 6% i Niger daryolariga to'g'ri keladi. Nil daryosining yillik suv oqimi atigi 85 kub. km ga teng xolos.

Er osti suvlari notekis tarqalgan bo'lib, Saxroi Kabir, Namibiya cho'llari, Atlas tog'larida Efiopiya, Somali xududlarida juda kam. Yer resurslari kata 1/10 qism xududi o'rmon bilan qoplangan.

Tabiiy yaylovlar sifatida yarim dashtlar, savannalar zonalari hisoblanadi. 40% xududida chorvachilik imkoniyatlari bor.

3. Afrika aholisi va mehnat resurslari. Afrika antropogenez markazlaridan biri. Bu haqda 20-a.ning 50—70- yillaridagi topilmalar ko'rsatgan. Minglab yillar davomida Afrika da aholining turli etnik guruhleri tarkib topgan. Hozirgi vaqnda Afrikada dunyo aholisining qariyb 1/10 qismi yashaydi. Irqiy tarkibi juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Negroidlarning turli tiplari Afrika hududida Sahroi Kabirdan janubiga qarab tarqalgan. Jan. Afrikada bushmen va gottentot irq guruhleri mavjud. SHimoliy Ani yevropoidlarning janubiga xos xalqlari egallagan. Negroid va yevropoidlarning qadimdan bir-birlari bilan aloqasi natijasida Efiopiya irq tiplari ham tashkil topgan. Madagaskar orolida mongoloidlar irqiga mansub aholi yashaydi.

Afrika aholisi juda ko'plab qabila va millatlardan tarkib topgan. Mustamlaka tuzumi aholi rivojlanishini to'xtatib qo'ygan. Mustamlakachilikka qarshi kurash, davlat mustaqilligiga erishish, milliy ongning o'sishi, madaniyat markazlarini tashkil etish — hammasi etnik birlashuvni tezlashishiga olib keldi. Buning natijasida Afrika da yangi xalq va millatlar tarkib topdi. Afrikaning ko'plab xalqlari hali yaxshi o'rganilmagan. Afrikada 4 ta lingvistik oila: afroosiyo, kongokordofan, nil-sahroi kabir va koysan til sinflari mavjud. Yevropoid irqiga taalluqli — ingliz, frantsuz, ispan, italiya, portugal va boshqa xalqlar Afrika aholisining 3% ni tashkil kiladi. Afrikada aholining 42% musulmon, 22% xristian, 36% mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiladi.

Afrika aholisi uzoq vaqtlar yirik davlatlar mustamlakasi bo'lishi ta'sir qilib keldi. Qul qilib sotilishi, qattiq ekspluatatsiya qilinishi natijalari ham ta'sir etdi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng tez ko'paydi. Yer sharining aholisiga nisbatan tug'ilishning yuqoriligi natijasida 50-yillardan 80-yillargacha 2-2,5 marta o'sdi. Arablar, negrlar, bo'shmenlar va hokazolar yashaydi.

Afrika regionini etnik tarkibi:

1. SHimoliy va SHimoliy-sharqiy qismida arablar va boshqa xalqlar yashaydi. Bunga Aljir, Tunis, Marokko, Liviya va Misr davlatlari kiradi.

2. SHarqiy, Markaziy, g'arbiy qismlari kirib, Xaus, bantoidlar, Atlantika bo'yi, Monde-Gvineya xalqlari yashaydi.
3. Ekvatorial oblast - Bantutil oilasi kiradi.
4. Janubiy oblast - Kosa, Zulu xalqlari, Yevropadan kelgan inglizlar, gollandlar, Frantsuzlar va boshqlar.
5. Madagaskar, Indoneziya til oilalari kiradi va oblastlarga bo'linadi.

Aholining tabiiy o'sish sur'atlari Markaziy, SHarqiy va G'arbiy Afrika mintaqalari hamda mamlakatlarida (Niger, CHad, Uganda, Malavi, Gvineya, Angola, Mali, Keniya, MAR va boshqalar) ayniqsa yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanmoqda. Mazkur mamlakatlarda tug'ulish koefitsenti 40%dan ham yuqoridir. Afrika o'lim darajasining yuqoriligi va aholi o'rtacha umr davrining pastligi bo'yicha ham ajralib turadi. Umumiy o'lim koefitsenti 8-10%ni, bolalar o'limi koefitsenti esa 85-90%ni tashkil etmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davri 49 yoshdan oshmaydi. Zichligi 1 kv km ga 15 kishi to'g'ri keladi. Botsvana, Liviya, mavritaniyada 1 kv km ga 72 kishi to'g'ri keladi. 25% aholi shaxarlarda yashaydi. Ayrim mamlakatlarda 50% gacha, ayrimlarida 10% ni tashkil etadi. Afrika aholisining soni 1 mln dan ortiq bo'lgan 20 ga yaqin shaharlar mavjud. Urbanizatsiya past darajada yirik shaharlar ko'p. qohira, Yoxannesburg, Lagos va boshqa yirik shaharlar atrofida aglomeratssiyalar shakllangan.

Feodal munosabatlar saqlanib qolgan. Mehnat resurslari yetarli. Afrikada 3ta yirik din alohida o'rin egallaydi. SHulardan mahalliy an'anaviy dinlar G'arbiy va Markaziy Afrikada, islom dini SHimoliy, G'arbiy va SHarqiy Afrika, xristian dini Janubiy, qisman G'arbiy va Markaziy Afrikaja hamda Efiopiyada tarqalgan. Yevropoid irqiga ta'luqli-ingliz, frantsuz, ispan, italian, portugal va boshqa xalqlar Afrika aholisining 3% ni tashkil qiladi. Afrikada aholining 42: musulmon, 22% xristian, 36% mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiladi.

4. Xo'jaligining umumiy tavsifi Region xujaligida milliy ozodlik harakatlari natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Sanoati o'sdi. qishloq xo'jaligi masaydi. yog'ochni qayta ishlash tarmoqlari rivojlandi. Umuman olganda Afrika iqtisodiyoti qarashli og'ir uzoq davomli kurashni taqazo etadi. Lekin

xaligacha xo'jalik tarmoqlar tarkibining mustamlaka tipii o'z mavqini sqlab qolgan. U quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. tovar ahamiyati va mahsuldorligi past bo'lgan qishloq xo'jaligining ustunligi;
2. qayta ishlovchi sanoatning bo'sh rivojlanganligi;
3. transport tizimining qoloq holatda ekanligi;
4. noishlab chiaqirsh sohasining, asosan, savdo v xizmat ko'rsatish bilan chegaralanganligi.

Region sanoati boshqa region mamlakatlari sanoatian past rivojlangan. Ko'pchilik mamlakatlarda milliy daromadning katta qismi qayta ishlov, qishloq xo'jaligining turli mahsulotlaridan qayta ishlov va mineral xom ashyodan olinadi. qayta ishlovchi sanoat JAR, Misr, Jazoir, Nigeriya, marokash, Liviya hamda Zimbabve, Tunis, KDR, Keniya mamlkatalarida yaxshi rivojlangan. Aynan shu mamlakatlar elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha ham Afrikada yetakchi. Region sanoatining 80%i 11 ta mamlakatda Misr, Jazoir, Marokash, Liviya, Nigeriya, Tunis, Keniya, Zambiya, Zair, Sudanda.

Ximiya sanoati: Marokash Aljir, Keniya, Uganda fosforitlar, kislota va o'g'itlar ishlab chiqariladi. Neft' qayta ishlash sanoati Jazoir, Liviya, Misr, Nigeriya JARda rivojlangan. JARda bundan tashqarii mashinasozlik, tog'-kon sanoati, metallurgiya, transport mashinasozligi rivojlangan. Vagonsozlik, kemasozlik Misr, Marokash, Nigeriyada elektr asboblari uskunolari. Aljir, Misr, Zair, Angola. Zimbabve, Tanzaniyada yog'ochni qayta ishlash sanoati Zair, Zambiya, Kongo, rama, Nigeriya, Zimbabve, va JARda, oziq-ovqat va yengil sanoat u yoki bu tarmog'i hamma mamlakatlarda rivojlanan. Masalan: Pal'ma yog'i-Nigeriya, S'erro-Leone, Rama, Zair, Kamerunda; shakar sanoati – Mavritaniya, Nigeriya, Keniya, Efiopiya, JARda; vinochilik – Jazoir, Tunis, Marokashda rivojlangan.

qishloq xo'jaligi: Afrikada yirik eksport mahsulotlari yetishtiriladi. Bular kofe, kakao, kauchug, choy, banan va hokazolar.

Kakao - G'arbiy Afrika,

Kofe – SHarqiy Afrikada

Kauchug – Liviya, Zair, Nigeriya, Madagaskarda

Paxta – Misr, Sudan, Ugunda va boshqa

Tamaki – Janubiy Afrika mamlakatalrida.

Bug'doy – SHimoliy qismida

Makkajo'kori – SHimoliy-sharqiy qismida.

qishloq xo'jaligi uchun yaxshi sharoitlarga ega. Region mamlakatlarining 70% aholisi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lib agrar mamlakatlar hisoblanadi. qishloq xo'jaligi mahsulotlar ishlab chiqarishda dun mamlakatlari ichida mineral o'g'itlar kam ishlatiladigan region hisoblanadi. CHorvachilik regionda 12-13%ni tashkil etadi, 160 mingdan ortiq mahsuldorligi ancha past qora mollar uy hayvonlari hisoblanadi.

Transporti:Transkontinental' yo'llar yo'q. Transport tarmog'i bo'sh rivojlangan. G'arbiy va sharqiy Afrika qismlarida rivojlanayapti. O'rta Yer dengizidan to Gvineya qo'ltig'i Atlantikadan to Hind okeanigacha avtomobil yo'llari rivojlanayapti.

Dengiz transporti yirik davlatlarda eksportga xizmat qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalari:

Tashqi savdo region eksportida katta rol' o'ynaydi, 90 % mahsulotlari hali ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisoblanadi. Mineral xom-ashyo eksportning 2/3 qismi kakao va bobovilar, 1/3 qismi pal'ma, olivkovaya va kofe hisoblanadi. 30 dan ortiq davlatlar boshqa region davlatlari bilan aloqa qiladi. Ayniqsa Jazoir, Liviya, Angola, Gvineya, Marokash, Misr, Efiopiya rivojlanayotgan kapitalistik mamlakatlar bilan ham aloqalar rivojlanayapti.

6. Afrikaning regionning subregionlari:

Region 5 ta subregionlarga ajraladi.

- 1 .SHimoliy Afrika subregioni
2. G'arbiy Afrika subregioni
3. Markaziy Afrika subregioni
4. SHarqiy Afrika subregioni

5. Janubiy Afrika subregioni

Quyidagi jadvalda subregionlar ifoda etilgan.

№	Subregionlar	Maydoni (ming m ²)	%	Aholisi (ming kishi)
1	SHimoliy Afrika subregioni	9,6	33,0	180,2
2	G'arbiy Afrika subregioni	5,1	17,5	277,2
3	SHarqiy Afrika subregioni	6,7	23,0	183,5
4	Markaziy Afrika subregioni	4,5	15,5	133,8
5	Janubiy Afrika subregioni	3,2	11	180,2
6	JAMI	29,1	100,0	2546,4

SHimoliy Afrika subregioni

Subregion tarkibiga 8 ta davlat kiradi ularning xar biri o'ziga hos iqtisodiy va tabiiy geografik xususiyatga ega. Ular quyidagi jadvalda ifoda etilgan:

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (ming km ²)	Aholisi	Davlat tili	Dini	Pul birligi
1	Sudan	Xartum	1956	2506	31,8	Arab	Islom	Sudan dinf
2	Jazoir	Al'-jazoir	1962	2382	31,6	Arab	Islom	Jazoir dinori
3	Liviya	Tripoli	1951	1760	5,3	Arab	Islom	Liviya dinori
4	Mavritaniya	Nuakshot	1960	1031	2,7	Arab	Islom	Ugiya
5	Misr	qohira	1952	1001	69,8	Arab	Islom	Misr funti
6	Marokash	Rabot	1956	447	29,1	Arab	Islom	Marokash

								dinori
7	G'arbiy Saxro	El' – Ayun		266	10,2	Arab	Islom	Pesta
8	Tunis	Tunis	1956	164	9,7	Arab	Islom	Tunis dinori

SHimoliy Afrika subregioni davlatlarning joylashgan o'ri iqtisodiy geografik jihatdan qulay. Atlantika okeani, o'rta yer dengizi, Suvaysh kanali orqali Hind okeaniga chiqish imkoniyatlarini beradi va Yevropa, Osiyo va okean orti mamlakatlari bilan aloqa qiladi.

Tabiiy sharoit resurslari:

Xarakterli xususiyati – 2 ta. 1-katta neft boyligiga, tabiiy gaz, rudalar va ruda bo'lmagan qazilmalarga ega. 2-qishloq xo'jaligining rivojlanishi esa chegaralangan. Namlik yuqori, atlas tog'larining shimoliy g'arbiy va Nil vodiylarida Senegal, Sudan daryolarining uning qirg'oqlari janubiy Mavritaniya chegaralari esa qulaydir, agromeliorativishlarni talab qiladi.

Tabiiy yaylovlarning borligi chorvachilik rivojlanishiga imkoniyat beradi. Ayrim davlatlarda esa chegaralangan. Subregionlar qazilma boyliklarini ekspluatatsiya qilish 19 asrdayoq boshlangan bo'lib, hozirda ham ahamiyatga Jazoir, Liviya, Misr, Tunisda neft, gaz, ruda boyliklar dunyo ahamiyatiga ega.

G'arbiy saxroda geologik razvedka uranga boy konlarning borligi aniqlangan. Mis, temir, marganets, polimetall zahiralari ham bor. Aholisi: subregion aholisi boshqa regionlarga nisbatan bir millatlik. Subregionda arablar kelgunlarigacha barbarlar va pielenlar yashaganlar. Tili asosan arab tili. Faqat 1/4 Mavritaniya aholisi, 1/3 Sudanning janubiy qismi aholisi negrlardir. SHimoliy Afrika subregionining millatlari Misr, Jazoir, Liviya, Tunis va Marokashda tez shakllanmoqda. Aholining tabiiy o'sishi ham turlicha bo'lib, Mavritaniya, Sudan, Tunis, Misrda o'rtachadan yuqori. Aholining ko'pchilik qismi Nil deltasi vodiylarida, Mavritaniyaning shimoliy sohillari joylashgan. CHorvalik Bilan shug'ullanadigan aholi ko'chmanchi xayot tarzi bilan bog'liq. qishloq aholisi

Sudan, Mavritaniyada 80% Marokashda, 60% Jazoir, Tunis, Liviya, Misrda 1/2 qism aholi qishloq joylarda yashaydi. Afrikaning asosiy millioner shaxslari joylashgan.

Xo'jaligi: subregion uchun sanoatning rivojlanishi xarakterlidir. Region sanoat mahsulotining 1/2 qismi subregionga to'g'ri keladi. qishloq xo'jaligida bosh rol ni o'simlikshunoslik o'ynaydi. Sug'oriladigan yerlarda subregionning 4% qismi dehqonchilik qiladigan rayonlardir. Jazoir va Liviyada 2/3 qism territoriya tsitrus plantatsiyalari vinochilik Jazoir, Tunis, MAR va Sudanda rivojlangan. SHakar qamish paxta Misr va sudanda yetishtiriladi. Subregionda oziq-ovqat ekinlari makkajo'hoiri, babavilar, turli xil poliz ekinlari yetishtiriladi. Mag'rib davlatlari Marokash, Jazoir, Tunis davlatlari bo'lib, shu nom bilan birlashtirilgan arab halifaligi g'arbiy qismi bo'lib hisoblangan. Bu mamlakatlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qiladi. Uun tolali paxta Misr va Sudanda yetishtiriladi. Eksportning 40% i Misrga 60% Sudanga to'g'ri keladi. Mag'rib davlatlarida va Marokashda rivojlangan bo'lib eksport qilinadi, ayniqsa Sardina balig'ini ko'plab eksport qiladi.

Sanoati: qazib olish kata o'rinni egallaydi. Liviya, Jazoir va Mavritaniyada ular eksportning 90% ini tashkil etadi. qazilma mahsulotlardan tog' - kon sanoati, neft', temir rudasi, fasforit, marganes polimetall rudalari mavjud. Neft' qazib chiqarish 200 mln tonnadan oshadi. Bu asosan 2/3 qismi Liviya va Jazoirga to'g'ri keladi. Tabiiy gazning 20 mld m³ asosan Jazoirda, Misr, Mavritaniyada. Neft' qayta ishlash sanoatining 2/3 qismi Misrda, Jazoirda, Liviyada qora metallurgiya sanoati Jazoir va Misrda rivojlangan. Avtomobil yg'ish va yirik mexanika zavodlari mAg'rib davlatlari va Misrda rivojlangan. Hamma davlatlarda oziq-ovqat sanoati rivojlangan.

Transporti: Temir yo'l transporti asosan xom-ashyo rayonlaridan talon o'tadi. Avtomobil transporti asosiy transport hisoblanadi. Neft', gaz bor rayonlardan trubaprovodlar o'tkazilgan. Hozirgi zamonda avtomobil transporti va trubaprovod o'tkazish tez rivojlanmoqda. Neft' ishlab chiqaruvchi davlatlarda dengiz floti rivojlanmoqda, eski portlar qayta jihozlandi. Ko'pchilik davlatlarda

havo transporti ham rivojlanmoqda. Tashqi savdo aloqalari rivojlangan kapitalistik davlatlarga qaratilgan. Eksportga asosan xom-ashyo, yoqilg'i, texnik jihozlar, oziq-ovat mahsulotlari chiqariladi.

Tashqi savdo aloqalari tufayli yirik sanoat proektlari, energetika qurilmalari, irrigatsiya va suv xo'jaligi ishlari, transport strukturasi rivojlanmoqda. Ko'pkina davlatlarga turizm ham katta daromad keltirmoqda.

G'arbiy Afrika subregioni

G'arbiy Afrika eng aholisi ko'p subregionidir. Region aholisining 1/3 qismi, maydonining 1/6 qismini egallaydi. Tarkibiga 15 ta suveren davlat kiradi. Bulardan Gvineya va Benin davlatlari sotsialistik tuzum yo'nalishda rivojlanayotgan davlatlardir.

G'arbiy Afrika davlatlari

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (ming km ²)	Aholisi	Davlat tili	Dini	Pul birligi
1	Niger	Niamey	1960	1267	10,4	Frantsuz	Islom	Afrika franki
2	Mali	Bomako	1960	1240	9,3	Frantsuz	Islom	Mali franki
3	Nigeriya	Abuja	1960	924	126,6	Ingliz	Islom	Nayra
4	Kot-d'Ivuar	Yamusukro	1960	322	16,4	Frantsuz	Majusiy	Afrika franki
5	Burkina - Faso	Uagadru	1960	274	12,3	Frantsuz	Islom	Afrika franki
6	Gvineya	Konakri	1958	246	7,6	Frantsuz	Islom	Gvineya franki

7	Gana	Akkra	1957	239	1,9	Ingliz	Xr va is	Sedi
8	Senegal	Dakar	1960	196	9,7	Frantsuz	Islom	Afrika franki
9	Benin	Porto-Novo	1960	113	6,6	Frantsuz	Majusiy	Afrika franki
10	Liberiya	Monroviya	1847	111	3,2	Ingliz	Majusiy	Liberiya dollari
11	S'erra-Leone	Fritaun	1961	72	5,4	Frantsuz	Islom	Leone
12	Togo	Lome	1960	56	5,2	Frantsuz	Xristian	Afrika franki
13	Gvineya Bisau	Bisau	1973	36	1,2	Portugal	Maxal D	Gvineya Bisau pesasi
14	Gambiya	Ganjul	1965	11	1,4	Ingliz	Islom	Dalasi
15	Yashil Burunorlar	Praya	1975	4	0,3	Ingliz	Islom	

Mali, yuqori vayuta va Nigerdan tashqarii hamma respublikalar qirg'oq bo'ylarida joylashgan bo'lib, subregionlar Yevropa deb davlatlari va shimoliy Afrika davlatlari bilan Atlantika portlari orqali aloqalar qilish imkoniyatiga ega.

Tabiiy resurslari va sharoitlari

Subregion mamlakatlari bir-biridan farq qiladilar. SHimoliy qismlari Mali, Nigeriya. Saxro rayonlari hisoblanadi. qurg'oqchilik bo'lib turadi. Senegal, yuqori valyutada ham subregionlarning janubiy qismi savannalar, tropik o'rmonlar bilan qoplangan. Namlik yuqori. Hidro resurslarga boy. Gana, Nigeriya, Gvineyada yirik GESlar mavjud. O'rmon resurslari keyingi yillarda kamayib bormoqda. Kamayib ketishiga sabab kesib ketish, mahalliy yoqilg'i sifatida foydalanish tufayli. Neft' Nigeriyada katta miqdorda mavjud. Boksit, temir, marganets, qalay, uran, oltin, olmos, fosforitlar kabi foydali qazilmalar bor.

Aholisi: Yevropoid irqiga mansub bo'lib, shimoliy Afrika Mali, Nigeriya, ko'p sonli negroid xalqlari tropik Afrikada yashaydi. Joylashishiga ko'ra ham farqlari bor. Masalan: Ful'balar-Senegalda, Gvineyada va Malida, barbarlar – Mali, Gvineya, S'erra-leone, dogonlar Mali, yuqori valyuta, krular Liberiyada va hokazo.

Tabiiy o'sish o'rtacha Yevropa mamlakatlariga o'xshaydi. 14 yoshgacha bo'lgan aholisi 40% tashkil etadi. Notekis zichligi ham har-xil 80% aholisi qishloqda yashaydi. Nigeriya, Yuqori valyuta, Beninda 90% yuqori. Urbanizatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lgan davlatlar Nigeriya, Fil suyagi qirg'oqlari, Gana va Senegaldir. Asosiy shahar aholisi poytaxtlarda yashaydi. Migratsiya ko'chmachi chorvalik va plantatsiya xo'jaliklari mamlakat ichkarisida yuqori.

Xo'jaligi: Xalq xo'jaligi asosan qishloq xo'jaligini tashkil etadi. Nigeriya va Gvineyada qazib olish tarmog'i katta o'rin egallaydi. qayta ishlov sanoati Nigeriya, Fil suyagi qirg'oqlari davrlarida rivojlangan. Ko'pchilik davlatlarda u yoki bu darajada don va oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligini ko'rish mumkin.

Subregion mamlakatlari xo'jaligida davlat sektori o'smoqda. Sotsialistik yo'nalishda rivojlanayotgan Nigeriya Gana, Malida qazish sanoatining to'la qismi davlat sektoriga to'g'ri keladi.

qishloq xo'jaligida agrotexnika darajasi past, kam mahsulotli dehqonchilikka ega. Dehqonchilikda sholi katta o'rin tutadi. G'arbiy Afrika mamlakatlarida qishloq xo'jaligida eksport mahsulotlarining katta qismini kakao, babavie tashkil etadi.

Sanoati: Nigeriya xar yili 90-100 mln tonna neft' qazib oladi. va gaz oladi. Boksit qazishda Gvineya 10-11 ming tonna qazib 90% eksport qiladi. Gana, Nigeriyada uran, Senegalda fosforit olmos olinadi.

qayta ishlov sanoatining xarakterli xususiyati to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatidir. Neftni qayta ishlov Nigeriyada rivojlangan. Sanoat asosan poytaxt shaharlarda joylashgan.

Transporti: Transport asosan kam rivojlangan, bu esa mamlakatlar ichidagi aloqalarni yaxshilashga salbiy ta'sir etadi. Nigeriya, Gvineya-Bisau, Gambiyada umuman temir yo'l yo'q. S'erra-leone va Liberiyada qisqa liniyalik temir yo'l bor

xolos. Avtomobil transporti Mom-t ichkariga mahsulotlarni tashishda, yo'lovchilar tashishda ishlatiladi. qirg'oqlarda portlar ko'p: Dakar, Konakri, Abidjan, Katanii, Lagos va boshqalar.

Tashqi savdosi: bu subregion davlatlarga rivojlangan davlatlarning qiziqishi katta. Kakao, kofe, kauchug, neft' va boshqa qishgloq xo'jalik mahsulotlari eksport qilinadi. Subregionning eng katta davlati Nigeriyadir. Uning subregionda iqtisodiy o'rni alohida bo'lib, iqtisodiy rivojlangan davlat hisoblanadi.

SHarqiy Afrika subregioni

Region xududining 1/7 qismi, aholisining 1/5 qismini subregion tashkil etadi. 9 ta mustaqil davlatlar kiradi.

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (ming km ²)	Aholisi	Davlat tili	Dini	Pul birligi
1	Efiopiya	Adis-Abeba		1222	65,4	Amxar	Pravoslav	BIR
2	Tanzaniya	Dodoma	1961	945	36,2	Ing va suam	Islom	Tanzaniya shillingi
3	Zambiya	Lusaka	1964	753	9,4	Ingliz	Seretizixristian	Zimbabve dollari
4	Somali	Mogadisho	1960	638	7,5	Somali va arab	Islom	Somali shillingi
5	Keniya	Nayrobi	1963	583	29,8	Ing va suaxili	Majusiy	Keniya funti
6	Uganda	Kamlala	1962	236	24,0	Ingliz	Katolik	Uganda shillingi
7	Malavi	Lilongve	1964	118	11,1	Ingvo chechev	Xristian	Malavi kvachasi

						o		
8	Jabuti	Jabuti	1977	22	0,6	Frants va arab	Islom	Jabuti franki
9	Seyshal orollari	Viktoriya	1976	0,4	0,1	Ingliz	Katolik	Seyshal rupyasi

Iqtisodiy geografik holati

Janubiy Osiyo regionini bilan dengiz yo'li orqali Yevropa va Osiyo davlatlari bilan aloqa qilishga qulayga sharoitga ega. Uganda, Malavi, Zambiyagina dengizga chiqa olmaydi.

Tabiiy resurs sharoitlari.

Subregionning shimoliy xar-xil tabiiy sharoitlarga ega. Efiopiya uchun tog' landishafti rel'efi xarakterli qolganlari platolardan iborat bo'lib, Somali, Efiopiya davlatlarida qug'oqchilik bo'lib turadi. Keniya, Tanzaniya ham bo'ladi. O'rmonlar subregionning 1/5 qismini egallaydi. Uganda Keniya, Tanzaniya, Malavida buyuk ko'llar va daryolar xo'jalikda asosiy rol o'ynaydi.

Mineral resurslar bo'yicha Zambiya asosiy rol o'ynaydi. Mis, Nodir Metallar, toshko'mir kabilar topilgan. Boshqa davlatlarda geologik qidiruv ishlari bo'sh rivojlangan.

Aholisi: Efiopiya, Jabuti, Somalida Semet-xalit ommasiga mansublar. Janubda bantu xalqlari yashaydi. Aholining tabiiy ko'payishi Afrikaning o'rtacha ko'rsatgichlariga tengdir. Zichligi 1 km² ga 20 tadan to'g'ri keladi. Migratsiya kuchli, ko'chmachi bo'lib, odat tusiga aylangan. 80% aholisi qishloqlarda yashaydi. Asosan poytaxt shaharlar rivojlangan.

Xo'jaligi: Agrar xarakterga ega. Milliy daromadning 40%ni qishloq xo'jaligiga beradi. qishloq xo'jaligida chorvachilik katta rol o'ynaydi. Efiopiya, Tanzaniya, Keniya, Somalida dehqonchilikda makajo'xori, bug'doy, banan, sabzavotlar yetishtiriladi. SHakar qamish Uganda, Tanzaniya, Zambiyada banan Somalida, bug'doy Keniyada, Ugandada yetishtiriladi. Eksport mahsuloti- kofe, choy, tamaki hisoblanadi. CHorvachilikda yirik uy xayvonlari 50 mingdan ortiq,

80 mingdan ortiq mayda shohli xayvonlar, 3 mingdan ortiq tuya bor. Go'sht, sut chorvachiligida nisbatan Keniya, Efiopiya, Somalida rivojlangan.

Sanoati: SHarqIy Afrika qazilma sanoati materikning boshqa subregionlarida nisbatan bo'shroq., Zambiyada rivojlangan. Zambiya subregionda miss poyaslari rivojlangan. Zambiya xar yili 0,6-0,8 million tonna miss qazib oladi. Tanzaniya, Keniya ham shu sohada rivojlangan. Neft' qayta ishlash zavodlari Zambiya Kime sanoati, kal'tsiy, soda ishlab chiqariladi. Asosan sanoat poytaxt va port shaharlarda rivojlangan. Transport asosiy muammodir. Somalida temir yo'llar yo'q. Avtomobil yo'llari bo'sh rivojlangan. Efiopiyada temir yo'l poytaxt va Jibuti potlarini bir-biriga boqlanadi.

Turizm katta rol' o'ynaydi.

Markaziy Afrika subregioni.

Markaziy Afrika subregioni xududining 1/4 qismini, 1/7 qismi region aholisining tashkil etadi. Tarkibiga 11 ta mustaqil davlat kiradi. Bular ichida Angola va Kongo sotsialistik yo'nalishni tanlagan.

№	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (m ²)	Aholisi	Davlat tili	Dini	Pul birligi
1	Zoir	Kinshasa	1960	2345	53,6	Frantsuz	Katolik	Zoir
2	CHad	Njamena	1960	1284	8,7	Fr va arab	Musulmon	Afrika franki
3	Angola	Luanda	1977	1247	1,2	Portugal	Katolik	Kvanza
4	MAR	Bangi	1960	623	36,0	Fr	Katolik	Afrika franki
5	Kamerun	Yaunde	1960	475	15,8	Ing va fran	Xristian	Afrika franki
6	Kongo	Brazzavil	1960	342	3,1	Fran	Xristian	Afrika

								franki
7	Gabon	Librevil'	1960	268	1,2	Frantsuz	Xristian	Afrika franki
8	Ekv Gvineya	Malabo	1968	28	0,5	Ispan	Katolik	Ekveleyo
9	Burundi	Bujumbura	1962	28	6,2	Fr va kirundi	Katolik	Burundi branchi
10	Ruanda	Kigali	1962	26	7,3	Ingliz	Katolik	Ruanda franki
11	San-Tome Prinsipi	San tome	1975	1	0,2	Portugal	Katolik	Dobra

Iqtisodiy geografiya holati.

Subregion mamlakatlari 1960-75 yillar davomida mustamlakatlarda zanjirlarning ulotirildilar. Ko'pchilik mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy holatlarda mustamlakachilik o'zining izini qoldirgan. Masalan: Zoir, Burundi, Ruanda-Bel'giya mustamlakasi, Ekvatorial Gvineya-Ispaniya, San-Tome-Portugaliya qolgan davlatlarda esa Frantsiyaning koloniyasi hisoblanadi. Ko'pchilik markaziy Afrika davlatlari qirg'oq bo'ylarida, Atlantika okeanlarida joylashgan.

Tabiiy resurs sharoitlari.

Subregion shimoldan janubga 4,5 ming km saxrogacha, cho'llar Janubiy Afrika dashtlarigacha cho'zilgan. Janubiy qismi MAR, Kamerun Xududini Gabon, Kongo katta qismini Zoi rva Angola xududlarining katta qismini nam tropik o'rmonlar qoplagan.

Bu yerlar intensiv qishloq xo'jaligida qiyinchiliklar bor, suv va o'rmon resurslariga juda boydir. Subregion boyliklari to'la o'rganilmagan.

Aholisi: markaziy Afrika aholisi turli etnik tarkibga ega. Ko'pchilik negroidlar irqiga, qolganlari bantu tipii oilasiga kiradi. Yana Xaus, ful'bal,

Kamerunda tubalar va boshqa Kamerun, Kongo, Zairda 10 minglab pinmentilar yashaydi. Tabiiy ko'payishi yuqori.

O'rtacha umr ko'rish kam bo'lib, bolalar o'rtasida o'lim yuqori, ayniqsa qurg'oqchilik rayonlarda 80% aholi qishloq xo'jaligida band. SHahar aholisi ozchilni tashkil etadi. Urbanizatsiya past. 2/3 qismi qishloqlarda yashaydi. Ekvatorial o'rmonlarda zichligi 2-3 kishi, Zairning tog'-kon zonalarida 160 kishini tashkil etadi.

Xo'jaligi: Subregion iqtisodiyotni asosiysini qishloq xo'jalik tashkil etadi. Eksport mahsulotlari, kofe, kakao, yog'li o'simliklar, plantatsiya xo'jaliklari va mayda tovar xo'jaliklari asosiy rol' o'ynaydi. Eksportda o'rmon asosiy o'rin tutadi. O'rmon xo'jaligi asosan tayyorlab, qayta tayyorlov va tropik yog'ochsozlik, Gabon, Zoir, Kongo va boshqa davlatlarda Afrikaning o'rmon mahsulotlarining eksport qilinishining 1/3 qismini beradi.

Sanoat: Muastamlaka IA davlatlarini Zoirdan tashqarii davlatlarda sanoat rivoji past bo'lib, keyingi yillarda rivojlanmoqda. Ammo bosh tarmoq qazish sanoati va xam-ashyo turlarini qayta ishlash bilan bog'liq ishlab bo'lib borilmoqda. Gabon dunyoda marganets, uran, temir rudalariga boy davlatlardan Kongo dunyo bozoriga kalili tuz, nodir rangli metallar, marva olmos, uran yetkazib beradi.

Transporti: Kamta'minlangan, temir yo'llari yo'q desa bo'ladi. Ammo dengiz bo'yi davlatlarida mustamlaka davlatlarda chegaralangan usuldi foydalanilar edi. Yuklar dengiz portlarigacha tashib boriladi. Daryo transporti rivojlangan yuklar va yo'lovchilar ishladi. Tashqi aloqalari: 3/4 qism tashqi savdosi g'arbiy Yevropa davlatlariga tuo'g'ri keladi. Boshqa regionlar bilan aloqasi bo'sh.

Zoir. 100 yildan ortiq Bel'giya mustamlakasi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy geografik holati o'ziga xos. Tor daryo Kongo bilan okeanga chiqadi. Foydali qazilmalarga eng boy davlat. Dunyoda olmos, oltin, mis, bo'yicha oldingi o'rinda turadi. Tropik o'rmonlari ko'p.

Janubiy Afrika subregioni

Maydoniga ko'ra rivojlangan tarkibiga kiradi. Boshqa regionlardan farq qiladi. Tarkibiga 11 davlat va mustamlakalar kiradi. 2 guruxga bo'linadi. Materik davlatlar va orollar davlatlariga bo'linadi.

No	Mamlakat nomi	Poytaxti	Mustaqillikka erishgan yili	Maydoni (km ²)	Aholisi	Davlat tili	Dini	Pul birligi
1	Namibiya	VendKUK	Jar mus t	824	1,8	Ingliz	Xristian	JA rendi
2	Mozambik	Maputu	1975	783	19,4	Portug	Majusiy	Metikal
3	Botsvana	Garaboni	1966	600	7,6	Ingliz	Majusiy	Lula
4	Zimbabve	Xarare	1980	390	11,1	Ingliz	Senfetizm xristian	Zimbabve dollari
5	Lesoto	Maseru	1966	30	2,2	Ing va sesutu	Xristian	Lotin
6	Svazilend orol davlatlari	Mbabane	1968	17	1,1	Ing va svazi	Xristian	Lilangeni
Orol davlatlari								
1	Madagaskar	Antananariv u	1960	783	16,4	Malasivo fr	Majusiy	Mad franki
2	Feyun'on	Sen-Deni	Fr	2,5	0,6			
3	Kamfor	Noroni	1975	2,2	0,4			
4	Mavrikiy	Port-Lui	196	2	1,2	Ingliz	Induizm	M rupya

			8					
5	Muqaddas Yelena	Jeymstaun	B. Br	0,4	0,0 7	Ingliz	Xristian	Funt sterling

Mozombik va Madagaskar sotsialistik yo'nalishda bormoqda. Janubiy Afrika davlatlari 1960 yildan boshlab mustaqillik uchun kurashgan davlatlar hisoblanadi.

Iqtisodiy geografik holati: subregion davlatlarining barchasi JAR bilan chegeradosh. Subregion davlatlariga doimiy siyosiy iqtisodiy va xarbiy ta'ziq o'tkazib kelinmoqda. Orollar mamlakatlarining holati Madagaskardan tashqari materikdan uzoqligi uchun ham rivojlanishga to'sqinlik qiladi.

Tabiiy resurslari: Neft' va gaz ham kam toshko'mirga boy temir, asbest, xrom, oltin, polimetall rudalari, olmos va hokazolar bor.

Materik qismida suv zahiralari ko'p gidroenergetik resurslari katta. Yirik GESlar mavjud. Chorvachilik uchun qulay sharoitlar bor. Madagaskarda agroiklimiy resurslar bor, intensiv dehqonchilik uchun qulay.

Aholisi: Asosan negriodlar bilan bantu tilida gaplashadilar. Tabiiy o'sish yuqori, joylanishi notekis, o'rtacha 1 km²ga 1-2 dan to'g'ri keladi. Mavritiyada eng yuqori 600 yaqin yirik shaxarlar oz, asosan aholi qishloqlarda yashaydi.

Xo'jaligi: subregion iqtisodiyoti juda orqada asosan, qishloq xo'jaligini tashkil etadi. BMT statistikasiga ko'ra qambag'al davlatlar qatoriga kiradi. Botswana 1970 yillarda bu tipdan chiqdi. Mozambik va Madagaskarda katta iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud. Zimbabve subregion davlatlari ichida alohida ahamiyatga ega bo'lib ko'p tarmoqli sanoat rivojlanmoqda. qishloq xo'jaligi bosh rol' o'ynaydi, ayniqsa dehqonchilik Botsvanada chorvachilik ustun 100% eksport mahsulotlari beradi. Namibiyada qo'ychilik rivojlangan. Madagaskarda 12 mln bosh yirik shohli xayvonlar boqiladi. 5 mln Afrikaliklar qo'lida esa. 15 mln gektar yer bor xolos. Zimbabveda don va tamaki yetishtiriladi. Mavritaniyada 90% xaydalaniladigan yerlarga shakar qamish ekiladi.

Sanoat: tog'-kon sanoati katta qismi chet el kompaniyalari xukmronlik qiladi. Ko'pchiligi JAR kompaniyalaridir. Olmos qazilmalari, Namibiyada Botsvanada Lesotoda, oltin Zimbabveda, Madagaskarda, temir, polimetall rudalari, rangli nodir metallar qazib olinadi. Bundan tashqari subregionlar rudamas qazilma boyliklari grafit, kvarts, asbest ham olinadi. qayta ishlov sanoati nisbatan Zimbabveda qora rangli metallurgiya, mashinasozlik, kakos kimyo o'g'itlar ishlab chiqarish, to'qimachilik, oziq-ovqat tarmoqlari mavjud. Botsvanada keyingi yillarda mis, nikel', nikel' rudalari qayta ishlash, Mavritiyada shakar ishlab chiqarish, qolgan davlatlarda birinchi ishlov minerallar va qishloq xo'jalik mahsulotlariga ishlov berish, baliqchilik rivojlangan. Mozambikda qurilish materiallari ishlab chiqarish rivojlangan.

Transporti: Transport bo'sh rivojlangan. Lesotoda temir yo'l yo'q. Namibiya va Botsvanada temir yo'llar asosan JAR yuklatirga xizmat qiladi. Madagaskarda qisqa liniyal, Zimbabveda boshqa liniya Mozambikning portlarigacha bor. Zimbabveda avtomobil transporti nisbatan rivojlangan.

Mozambik va Madagaskar portlari tashqi savdoda katta rol' o'ynaydi. Sotsialistik va kapitalistik davdatlar bilan aloqa qilmoqda.

Xulosa

Afrika makromintaqasi – bugungi jahon xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, industrlashtirish darajasi, qishloq xo'jaligi (ziroatchilik va chorvachilik), transport tizimi bilan ta'minlanganligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va fanning rivojlanishi jihatidan oxirgi o'rinda turadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida qazib beruvchi sanoat, tropik va subtropik dehqonchilik mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashgan. Ayni paytda xo'jaligida oltin va olmos, uran va boksit, fosforit, kokos yong'og'i va pal'ma yog'i, kofe va kakao ishlab chiqarish bo'yicha muhim o'rin tutadi.

Makromintaqaning iqtisodiy-geografik xususiyatlari quydagilardan iborat:

- Boshqa makromintaqalarga nisbatan Afrikaning o'ziga xos iqtisodiy-geografik holati avvalo ekvator uning markazidan o'tib ikkiga bo'ladi, shimolga va janubga tomon ekvatorial, tropik va subtropik kengliklar joylashgan.
- Issiqlik Afrika hududiga yil davomida bir xil tushadi, yil shimol va janubda bir-biriga qarama-qarshi, shimoliy yarim sharda yoz bo'lsa, janubiy yarim sharda qish yoki aksincha bo'ladi. Yil davomida qirg'oqlarini yuvib turgan dengiz va okean suvlari muzlamaydi, kemachilik uchun g'oyat qulay.
- Gibraltar bo'g'ozi (14 km, Yevropa va Afrikani bir-biridan ajratib turadi), Suvaysh kanali Qizil dengiz bilan O'rta dengizni bir-biri bilan tutashtiradi), Adan bo'g'ozi xalqaro ahamiyatga ega. SHu bilan birga ko'pgina mamlakatlar bevosita dengizga chiqa olmaydi (Mali, Niger, CHad va boshq.).
- Afrika makromintaqasi dunyodagi eng yuqori tabiiy o'sish sur'atlari (yiliga 3%) va yuqori tug'ilish ko'effitsientiga ega bo'lsada, o'lim sur'atlari ham kattaligi bilan ajralib turadi. Aholi yosh tarkibida 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i yuqori (45%). Makromintaqada aholi o'rtacha 1 km² ga 25 kishi to'g'ri keladi va g'oyat notekis joylashgan. Dengiz qirg'oq bo'yi, JAR, Zambiya, Zair va Zimbabve qirg'oq bo'yi rayonlarida 1 km²ga 50 kishidan 1000 kishiga qadar aholi to'g'ri kelsa, Sahroi Kabir, Kalaxari, Namib cho'llarida aholining zichligi 1 km²ga zo'rg'a 1 kishiga yetadi. Urbanizatsiya darajasi past, 30% atrofida. Afrikada 200 dan ortiq yirik shaharlar bo'lib, bu shaharlar atrofida aglomeratsiyalar shakllangan

(Qohira, Iskandariya, Jazoir, Kasablanka, Addis-Abeba, Logos, Kinshaso, Yoxannesburg, Keyptaun, Durban va boshq.). Yirik shaharlar asosan iqtisodiy jihatdan bir muncha rivojlangan – JAR (59%), Misr (43%), Tunis (63%), Jazoir (63%) mamlakatlarda joylashgan bo'lib, shahar aholisi salmog'i nisbatan yuqori.

Lingvistik xususiyatiga ko'ra, afro-osiyo, kongo-kordofan, nil-sahroikabir va koysan til sinflari mavjud. Yevropoid irqiga mansub xalqlar Afrika aholisining 3%ni tashkil qiladi. Afrikada aholining 42% musulmon, 22% xristian va 36% mahalliy an'anaviy dinlarga e'tiqod qiladi.

Afrika mamlakatlarida ichki va tashqi migratsiya xarakterli. Afrikadan tashqi migratsiya Yevropa mamlakatlariga, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlariga (asosan Fors ko'rfazi), ichki migratsiya esa kambag'al mamlakatlardan nisbatan boy mamlakatlar Nigeriya, Kot-d-Ivuar, Marokko, Misr, Tanzaniya, Keniya, Zair va Zimbabvega yo'nalgandir.

Afrika siyosiy kartasida 55 ta mamlakat bo'lib, ularning ko'pchiligi rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi (1-ilova).

Mintaqada yagona iqtisodiy rivojlangan mamlakat Janubiy Afrika Respublikasidir. Mamlakatlarning ko'pchiligi boshqaruv shakliga ko'ra respublikadir. (Marokash, Lesato va Svazilend konstitutsion monarxiya), ma'muriy hududiy tuzilishga ko'ra ko'pchiligi (JAR va Nigeriya-Federativ) unitar davlatdir.

Afrika geosiyosiy va iqtisodiy holatiga ko'ra: SHimoliy, G'arbiy, Markaziy, SHarqiy va Janubiy Afrika mintaqalariga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Ozod va obod vatan erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-tom., T., «O'zbekiston», 2000.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'usmiz. 9—tom., T., «O'zbekiston», 2001.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10—tom., T., «O'zbekiston», 2002.
4. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12—tom., T., «O'zbekiston», 2004.
5. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13—tom., T., «O'zbekiston», 2005.
6. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari-oliy qadryat. 14—tom., T., «O'zbekiston», 2006.
7. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15—tom., T., «O'zbekiston», 2007.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T., «Ma'naviyat», 2008.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T., «O'zbekiston», 2009.
10. Abdullaev.O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan 2002.
11. Atlas Mira stranni mira v kartax i faktax. M.: ZAO “kompaniya”, AST-PRESS. 1999.
12. Axmedov.E., Sayidaminova.Z. O'zbekiston Respublikasi (qisqacha ma'lumotnoma). T., 1998.
13. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. Rostov-, izd-vo Yuniti. 2007
14. Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejnyx stran/Pod red. V.P.Kolesova, M.I.Os'movoy. –M., 2000.
15. Strыgin A.V. Mirovaya ekonomika. –M., 2002.
16. Soibnazarov A. O'rgimchak to'ri. //“XXI asr” gazetasi, 2009 yil 23 aprel', № 17 (283)-son.
17. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 1—14 jildlar. T., Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2006.
18. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plam. –T., 2007.
19. Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
20. Population Reference Bureau 2008 Word Population Data sheet.
21. Ohmae K. The Bordless World: Power and Strategy in the Interlinked Economy. - Fontana, 1990